

Baholashda sun'iy intellektdan foydalanish shkalasi

1	SUN'IY INTELEKTSIZ BAHOLASH	Baholash topshirig'i boshqariladigan muhitda talabalar tomonidan faqatgina o'z bilim, tushuncha va ko'nikmalariga tayangan holda, sun'iy intellekt ishtirokisiz bajariladi. Baholash topshirig'ini bajarishning hech bir bosqichida Sldan foydalanmasligingiz lozim. Siz o'zingizning asosiy bilim va ko'nikmlaringizni namoyish etishingiz kerak.
2	SUN'IY INTELEKTDAN REJALASHTIRISHDA FOYDALANISH	Sldan aqliy hujum, asosiy g'oyalarni rejalashtirish hamda mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni o'rganishda foydalanish mumkin. Sldan foydalanishning mazkur darajasi Sldan rejalashtirish, ma'lumotlarni sintez qilish va g'oyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Baholash topshiriqlari shakllantirilgan g'oyalar hamda o'rganilgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda yanada takomillashtira olish ko'nikmalarini baholashga urg'u berishi lozim. Sldan rejalashtirish, g'oyalarni shakllantirish va mavzuni tadqiq qilishda foydalanishingiz mumkin. Siz tomondan bajarilgan va topshirilgan yakuniy ish ushbu g'oyalarni qanchalik takomillashtira olganingizni namoyish qilishi lozim.
3	SUN'IY INTELEKT BILAN HAMKORLIK	Sldan topshiriqni bajarish, jumladan, g'oyalarni shakllantirish, ishning qoralamasini tayyorlash, u bo'yicha qayta aloqa olish va yanada takomillashtirishda foydalanish mumkin. Talabalardan SI taqdim etgan natijalarni tanqidiy baholash hamda ularga tegishli o'zgartirish kiritish va bu orqali muammo yoki mavzu xususida o'z tushunchalarini namoyish qilish talab etilishi lozim. Sldan ma'lum bir topshiriqlar, masalan, matn qoralamasini yaratish, o'z ishingizni sayqallash va unga baho berishda foydalanishingiz mumkin. SI tomonidan yaratilgan har qanday kontentga tanqidiy baho berishingiz va o'zgartirish kiritishingiz lozim.
4	SUN'IY INTELEKTDAN TO'LIQ FOYDALANISH	Sldan topshiriqning barcha tarkibiy qismlarini bajarishda foydalanish mumkin. Bunda talabalar baholash topshirig'idan kutilgan natijaga erishishda Slga ko'rsatma beradilar. Bu darajadagi baholash topshiriqlari qo'yilgan maqsadlarga erishish va muammolarga yechim topishda Sldan foydalanishni talab etishi mumkin. Siz topshiriqni bajarishda o'z xohishingizga ko'ra Sldan keng ko'lamda yoki baholash topshirig'ida ko'rsatib o'tilgan darajada foydalanishingiz mumkin. O'z maqsadlaringizga erishish sari Sldan foydalanishga va shu asnoda o'z tanqidiy fikrlashingizni namoyish etishga e'tibor qaratish.
5	SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA TADQIQ QILISH	Sldan muammolarga yechim topishda, yangi qarashlarni shakllantirishda yoki muammolarni yechishga bo'lgan innovatsion yondashuvlarni yaratishda kreativ foydalaniladi. Talabalar va o'qituvchilar hamkorlikda Slning soha bo'yicha noyob usullarda qo'llanilishini tadqiq qilishga qaratilgan baholash topshiriqlarini yaratadilar. Muammoga yechim topishda Sldan kreativ tarzda foydalanishingiz va o'qituvchingiz bilan hamkorlikda yangicha yondashuvlarni yaratishingiz lozim.



Perkins, Furze, Ro va Makvo (2024). Baholashda sun'iy intellektdan foydalanish shkalasi